MAHOBATLI-DEKORATIV HAYKALTAROSHLIKNING ME'MORIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Usmonov Nodir
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Haykaltaroshlik" kafedrasi mudiri
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24441785

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahobatli va mahobatli-dekorativ haykaltaroshlikning badiiy-estetik xususiyatlari, ularning me'moriy muhitni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, me'morchilik va haykaltaroshlik san'atining o'zaro uyg'unligi, kompozitsion va fazoviy-plastik munosabatlari, monumental asarlarning shaharsozlik muhitidagi badiiy vazifalari yoritilgan. Haykaltaroshlik asarlarini arxitektura inshootlari, maydonlar, bog'lar va xiyobonlar bilan uyg'unlashtirishning estetik hamda kompozitsion tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: me'morchilik, haykaltaroshlik, mahobatli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental san'at, me'moriy muhit, san'at sintezi, kompozitsiya, fazoviy tuzilish, shaharsozlik.

Аннотация: В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности монументальной и монументально-декоративной скульптуры, их роль и значение в формировании архитектурной среды. Рассматриваются вопросы взаимосвязи архитектуры и скульптурного искусства, их композиционные и пространственно-пластические отношения, а также художественные функции монументальных произведений в градостроительной среде. Особое внимание уделяется научно-теоретическому осмыслению эстетических и композиционных принципов гармоничного сочетания скульптурных произведений с архитектурными сооружениями, площадями, садами и парковыми ансамблями.

Ключевые слова: архитектура, скульптура, монументальная скульптура, декоративная скульптура, монументальное искусство, архитектурная среда, синтез искусств, композиция, пространственная структура, градостроительство.

Annotation: This article examines the artistic and aesthetic characteristics of monumental and monumental-decorative sculpture, focusing on their role and significance in shaping the architectural environment. It explores the relationship between architecture and sculpture, their compositional and spatial-plastic interactions, as well as the artistic functions of monumental works in urban environments. Particular attention is paid to the theoretical principles of aesthetic and compositional harmony between sculptural works and architectural structures, squares, gardens, and park ensembles.

Keywords: architecture, sculpture, monumental sculpture, decorative sculpture, monumental art, architectural environment, synthesis of arts, composition, spatial structure, urban planning.

Me'morlik san'ati bilan bog'liq bo'lgan haykaltaroshlik asarlarini mahobatli haykaltaroshlikka kiritiladi. Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va parklar, shuningdek, me'morchilik binolarining

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga mansub. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar, turli fantanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi. Dastgohli haykaltaroshlik asosan muzeylarda namoyish etilishi mumkin.uni boshqa asarlar va interyerdan holi tarzda ko'rish mumkin.

Shuningdek, dastgohli xaykallarni bir zaldan ikkinchi zalga ko'chirish yoki boshqa shaharlarga olib ketish mumkin. Maxobatli va maxobatli- dekorativ xaykallar esa ma'lum joy bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Mahobatli xaykallar juda og'ir bo'lib, ularni joydan joyga ko'chirish nihoyatda qiyin va ko'p hollarda noo'rindir. Chunki mahobatli xaykallar albatta ochiq osmon ostida maydon va ko'chalarga o'rnatiladi va uning atrof muhit bilan uyg'unlashtirishni oldindan me'mor va xaykaltaroshlar inobatga oladi. Maxobatli-dekorativ xaykallarning vazni yengilroq bo'ladi, lekin, atrof muhit, ya'ni o'zi turgan ko'kalamzorlashtirilgan xiyobon, bino kompozitsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Haykalni me'morchilik va tabiat foniga kiritish, uni yanada ifodaviyliroq qilib ko'rsatadi. Maydonga o'rnatilgan maxobatli xaykal mazmunli kompozitsion maydonga aylanadi: tepaga tomon cho'zilgan vertikal va monument xajmlarining ketma-ket almashinilishi o'zining atrofida ritmik tashkillashtirilgan muhit yaratadi, bu esa o'z navbatida maydon, binolar va ko'chalarning ritm bilan kontrast yoki uyg'unlashib, umumiy kompozitsiyaga yakunlanganlik bag'ishlaydi. Mahobatli xaykal dastgohliga nisbatan tomoshabinga juda sezilarli ta'sir qiladi. Chunki maxobatli xaykal joylashtirilgan muhit, tabiatning turlanishi uni yanada jozibaliroq qilib ko'rsatadi. Bugungi shahar ansambllarini tantanavor maxobatli haykallarsiz tasavur qilib blmaydi. Lekin, mahobatli-dekorativ xaykallar ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ulan ansamblni yanada ko'rkam va dilni yayratadigan qilib ko'rsatadi. Maxobatli yodgorliklar rejaga moslashtirilib, maxsus loyiha asosida o'rnatiladi. Bitta maxobatli xaykal maydonni tashkil etadi, ikkitasi esa darhol baxs munozarani yuzaga keltiradi. Dekorativ haykallar esa bir biriga xalaqit bermaydi, aksincha, analogik asarlar bilan hamohang ko'rinadi. Me'morchilik va haykaltaroshlikning o'zaro bog'liqligi san'at tarixining juda qiziqarli muammolarini tashkil etadi. Chuqur g'oyaviy badiiy va kompozitsion bog'liqliklarga asoslangan, bu narsa doimo samarali bo'lgan va nafaqat tasviriy san'at va me'morchilik sintezining yuksak namunalarini tug'dirgan, balki, ko'p hollarda xar bir san'at turida yangi badiiy yutuqlarga erishishga imkon bergan. Alohidagi tarixiy davrlarda me'morchilik va haykaltaroshlikning o'zaro bog'liqlik muammosi, me'morchilikning ijodiy konsepsiyasini yangilash jarayoni bilan moslashib, o'ziga xos o'tkirlikni xosil qiladi. Mahobatli dekorativ haykaltaroshlik o'zining fazoviy-plastik sifatlariga ko'ra shaxarning betakror qiyofasini shakllanishiga ko'maklashadi va insonga badiiy ta'sir qilishning aktiv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Haykaltaroshlik nafaqat shahar muhitini boyitadi, balki uning shakllanishiga me'moriy til bilan chambarchas bog'liq holda, aktiv qatnashadi. O'ziga xos tarzda me'morchilik va haykaltaroshlikning kompozitsion o'zaro bog'liqlik shakllari juda xilma-xildir.

Haykaltaroshlik aynan me'morchilik shakli bilan bevosita o'zaro bog'lanishi mumkin, ya'ni uning hajmi, plastikasi, vazni (masalan dumaloq xaykal va bo'rtma, ularning bino kompozitsiyasiga yoki haykaltaroshlik qatnashgan monumentlardagi munosabati) bilan. Haykaltaroshlikning me'morchilik bilan o'zaro munosabati ifodalanishi mumkin, ya'ni plastik kompozitsiyalarning atrof muhitdagi me'morchilik va tabiiy muhit bilan o'zaro bog'liq holda ansambllarning loyixaviy tuzilishi bilan (shaxarning, maydonning, ko'chaning, tabiiy landshaftning), ularning ma'lum fazoviy va plastik o'ziga xosliklari bilan. Me'morchilik va haykaltaroshlikning san'atdagi o'zaro bog'liqligi muammolarining dolzarbligi va o'ziga xos o'tkirligi shundaki, u nafaqat san'at sintezining konkret plastik ifodaviyligiga daxldor, balki, zamonaviy me'morchilik shaklining paydo bo'lishidagi asosiy tomonlarga xam taalluqlidir. Me'morchilik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

va haykaltaroshlikning o'zaro bog'liqlik aspektlari bu borada keng amaliy ahamiyatga ega, ikkala san'atning kompozitsion yagonaligining o'zi esa insonning atrofini o'rab turadigan me'moriy-badiiy muhitning ifodaviyligi va obrazli kuchining muhim kriteriysi xisoblanadi. Muhimligiga ko'ra me'morchilik va haykaltaroshlik sintezining muammosi zamonaviy me'morchilikda "inson va muhit" kabi muhim muammolarining birini yechish uchun yondoshishga imkon beradi. Me'morchilik va haykaltaroshlikning o'zaro bog'liqligi fazoviy va plastik bo'lishi mumkin, qoidaga ko'ra ular ajralmas birlikda oldinga chiqadi, lekin, ba'zi hollarda plastik bog'liqlikning ustuvorligi xaqida gapirish mumkin (masalan, bino kompozitsiyasida haykaltaroshlikni barcha turlarining qatnashishi), boshqalarida yorqin ifodalangan garmoniyani, plastik va fazoviy aspektlarining teng badiiy qimmatligini ko'ramiz (masalan, monument). Shunga mos tarzda mazkur qo'llanmadagi material quyidagicha taqsimlangan: bino kompozitsiyasida haykaltaroshlikni analiz qilish; monumentlarning kompozitsiyasi. Me'morchilikning haykaltaroshlik sohasidagi o'rni katta. Me'morchilik va haykaltaroshlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Me'morchilik va haykaltaroshlik bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Masalan: ko'rgazma va muzeylar interyerlarini bezatish uchun badiiy asarlar: statuyalar, byust, mavzuli kompozitsiyalar va boshqalarni; arxitektura inshootlari, maydonlarda kahramonlik, milliy g'urur g'oyalarini tarannum etuvchi tarixiy shaxslar obrazlari haykallarini; bog'lar va hiyobonlar maydonlarini bezatish uchun yaratiladigan haykaltaroshlik asarlarini; turli ashyolarda bajariladigan statuetkalar, kichik xajmdagi mavzuli kompozitsiyalar, animalistika janridagi haykaltaroshlik asarlarini; relyef ko'rinishida bajariladigan asarlarni, har xil tarixiy voqeliklar, buyuk shaxslar yubiley sanalari va hokazolarni nishonlashga bag'ishlangan haykaltaroshlik asarlarini yaratishni o'rganilar ekan ularni o'z o'rniga qo'yib joylashtirishda, tomoshabinlar uchun ko'rimli va ta'sirli bo'lishini ta'minlashda, atrof-muhit bilan uyg'unligi ta'minlangan bo'lishida; "transport maydoni va mahobat" muammosining yechimini topishda; hiyobon ansambllarida haykaltaroshlik asarlari sintezi muammosini yechishda; jamoat binolari me'morchiligida san'at sintezi muammosini xal qilishda me'mor maslahati fanining o'ziga xos o'rni bor. Me'moriy kompozitsiya nazariyasi mazmuni me'moriy asarning yagonaligini va turli tip hamda maqsadli inshootlardan umumiy shakl yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Kompozitsiya nazariyasida o'rganilayotgan qonuniyatlar kategoriyalar yoki kompozitsiya unsurlari deb ataladi. Bu kategoriyalarga: xajmiy fazoviy tizim, tektonika, garmoniya, ritm, mutanosiblik, kontras, nyuans kabilar tegishli.

Xulosa qilib aytganda me'morlik san'ati bilan bog'liq bo'lgan haykaltaroshlik asarlarini maxobatli haykaltaroshlikka kiritiladi. Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va parklar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga mansub hamda me'morchilik va haykaltaroshlikning o'zaro bog'liqligi san'at tarixining juda qiziqarli muammolarini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рempел Л.И. Цепь времен: вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии.-Т.: Г.Гулям., 1987.
2. Ртвеладзе Э. Историческое прошлое Узбекистана.–Т.: 2006.–198 с.
3. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый пут.-Т.: Ўзбекистон Миллий қомуси.,1999.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.